

**O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDA JONLI MULOQOTNI TASHKIL  
ETISH. PEDAGOGIK NIZOLAR VA ZIDDİYATLARNI BARTARAF ETISH**

**Muhammadiyeva Zarnigor**

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"  
kafedrasi o'qituvchisi*

**Chaqqonova Anora Toxir qizi**

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi  
4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali, jonli muloqotni yo'lga qo'yishning pedagogik asoslari hamda bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va ziddiyatlarning oldini olish usullari tahlil qilinadi. O'quvchilarning psixologik holatini inobatga olgan holda, o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasini oshirish, empatiya, faol tinglash va o'zaro hurmat asosida dialog yuritish muhimligi yoritiladi. Pedagogik ziddiyatlarning kelib chiqish sabablari, ularning salbiy oqibatlari hamda ularni ijobjiy yo'l bilan hal etish strategiyalari amaliy misollar orqali ochib beriladi. Ish, o'quv jarayonida sog'lom muhitni shakllantirish va ijtimoiy-psixologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** muloqot, nizolar, ziddiyatlar, pedagogik muloqot, kommunikativ, perceptiv, interaktiv, jonli muloqot.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot asosida o'quvchilar bilan yaxshi munosabatni tashkil eta olishi, demokratik talablarni qo'llashi va birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi kerak.

Pedagogik muloqot – bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda eng qulay psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobjiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir. Pedagogik muloqot esa, bu o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, bunda ta'lim va tarbiya muammolari o'qituvchi hamda o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi bilan hal qilinadi. Bu vaziyatda o'qituvchi baho beruvchi rolida namoyon bo'ladi hamda uning o'zi baho oluvchi hisoblanadi. bunday hollarda pedagogik ta'sir ko'rsatish vazifalari va vositalari hamda o'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti quyidagi prinsiplarda namoyon bo'ladi:

1. *Kommunikativ muloqotda bir tomonlama axborot uzatiladi. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvini qamrab olgan*

bo‘lib, kommunikativ muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. O‘qituvchi va o‘quvchi bir - birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muloqotning muhim vositalari bo‘lmish til va nutq faoliyati bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.

2. *Interaktiv muloqotning muhim jihatni ikki tomonlama bir-biriga ta’sir etishdir.* Muloqotga kirishuvchi o‘qituvchi o‘zaro ta’sir etishda, o‘quvchilarning tarbiyaviy faoliyatiga nafaqat so‘z orqali, balki fikr almashinuv, hatti-harakat va xulq atvori bilan o‘zaro ta’sir o‘tkazishi tushuniladi.

3. *Perseptiv muloqotda o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi o‘zaro bir-birlarini idrok qilishi, anglashi tushuniladi.* Bunda muloqotga kirishuvchilar o‘zaro bir-birlarini idrok qilish asosida ulardan biri ikkinchisining ishonchini qozonadi, aqlii, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega barkamol inson sifatida idrok qilinadi.

Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o‘zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Pedagogik muloqot muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlik faoliyatiga chuqur kirishib keta olishi, shaxsni har tomonlama shakllantirishning maqsad va vazifalarini chuqur anglab, faoliyat olib borishi lozim. Marhum O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan nutqida “O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi... o‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini, demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanishi, mustaqil fikrlash katta boylik...” ekanligini ta’kidladi.

Demak, o‘qituvchilarning asosiy vazifasi shaxs erkinligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Shundagina ta’lim tizimida yoshlarga erkin fikrlash imkoniyatlari yaratiladi. Davlat siyosatining ustuvor sohasi bo‘lmish barkamol inson tarbiyasiga mas’ul – o‘qituvchilar zimmasiga bugungi kunda rivojlanayotgan jamiyatimiz uchun yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, irodasi baquvvat, o‘z kasbini mukammal biladigan XXI asr kadrlarini tayyorlash mas’uliyati yuklangan.

O‘qituvchining ta’lim-tarbiya sohasidagi faoliyatida erishishi lozim bo‘lgan barcha ijobjiy natijalari uning o‘quvchilar bilan jonli va erkin muloqotni to‘g‘ri tashkil etishi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi so‘z san‘atining cheksiz qudrati asosida o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi, har bir darsni samarali tashkil etib olib boradi, o‘quvchilar bilan so‘zlashishni biladi, tarbiyaning suhbat, ma’ruza, hikoya qilish kabi usullaridan o‘rinli foydalanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar bilan qizg‘in muloqotni amalga oshiradi.

Pedagogik nizolar "o'qituvchi-o'qituvchi, o'qituvchi-o'quvchi, o'qituvchi-ota-on, o'quvchi-o'quvchi" ko'rinishlari mavjud. Lug'aviy jihatdan "nizo" qarama-qarshi, bir-biriga nisbatan to'g'ri kelmaydigan kuchlarning o'zaro to'qnashuvi, ikki yoki undan ko'p taraflar orasida o'zaro kelishuvning yo'qligi, manfaatlar to'qnashuvini ifodalovchi ziddiyatni bildiradi. Pedagogik nizo bu o'qituvchi va o'quvchi, o'qituvchi va ota-onalar, hamkasblar va rahbariyat o'rtasida pedagogik jarayonda yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi, o'zaro qarama-qarshilik, tortishuv va mojarodir. O'qituvchi har tomonlama tarbiyalangan, aqliy, axloqiy, ma'naviy jihatdan yetuk, bilim doirasi keng, nutqi ravon, pedagogik bilim mahorat egasi bo'lishi lozim. O'qituvchining pedagogik bilim mahorati asosan sinf, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rindi. O'qituvchi bilan o'quvchi, o'quvchilar ortasida o'zaro jonli til, fikrlar olishuvi, samimiyy munosabat, hurmat-izzat, asosiy maqsadga erishishi uchun hamkorlikda ishlashi lozim. Pedagogik nizolar o'qituvchi faolitida kasbiy deformatsiyaning paydo bo'lishiga turtki beradi. Nizolar muntazam ijobiy o'z yechimini topmasa, o'qituvchining shaxsiyatida stresslar, ruhiy taranglik, hissiy kuyish sindromini keltirib chiqarishi mumkin. Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar 1.axborot omili; 2.munosabat omili; 3.xulq-atvor omili. *Kadrlar almashinuvining turlari:*

*Faol* - odamlar o'zlari tark etganda. Bir yildan ortiq ishlamasdan faoliyatini bir ish joyida yakunlagan xodim hisoblanadi. Ishdan bo'shash sababi, boshqa joyga ko'chish, faoliyatni o'zgartirish yoki yanada qulay shart-sharoitlardan taklif olishi mumkin.

*Passiv* - xodimlar ish beruvchi tomonidan ishdan bo'shatilganda. Bu turli sabablarga ko'ra sodir bo'lishi mumkin - masalan, agar xodimlar mehnat intizomini buzsa yoki o'z mehnat majburiyatlarini bajarmasa.

*Yashirin* - xodim ta'lim muassasasini tark etmasa, lekin o'z xatti-harakatlarida jimgina ishdan bo'shatish xususiyatlarini namoyon qiladi. Xodimlarning ishga qiziqishi yo'qoladi, mehnat unumдорligi pasayadi. Yashirin aylanmalar ming yillik xodimlar orasida keng tarqalgan.

*Noqulay ish sharoitlari yoki Raqobatbardosh bo'limgan maosh:*

Biz hayotimizning muhim qismini ishda o'tkazamiz, shuning uchun bu vaqt ni qulay sharoitda o'tkazishni xohlashimiz tabiiy. Tor, yomon yoritilgan xonalar, yomon iqlim sharoitlari, sifatsiz jihozlar yoki uning etishmasligi ish joyidan norozilikni keltirib chiqaradigan misollarning bir qismidir

Raqobatbardosh bo'limgan maosh, bunday amaliyot barcha darajadagi xodimlarda kuzatiladi. Garchi ko'pincha pul asosiy sabab emas. Ish haqi ishdan qoniqishning bevosita hal qiluvchi omili emas. Ko'pgina xodimlar ishdagi psixologik muhitdan qoniqmaydilar,

ular bevafo va g'ayratli emaslar va bu holda pul ta'lim muassasasini tark etish uchun qulay bahonadir. Noqulay ish sharoitlari yoki raqobatbardosh bo'limgan maosh.

*Motivatsiya tizimining yo'qligi yoki Maqtov etishmasligi.*

U bonuslar va bonuslarni, korporativ treningni o'z ichiga oladi. Agar ular mavjud bo'lsa, xodimlar o'zlarini qadrli, qadrli va g'amxo'rlik qilishadi. Agar motivatsiya tizimi bo'lmasa, bu xodimlarni ushlab turishga salbiy ta'sir qiladi.

Yaxshi rahbar o'z xodimlariga e'tiborli. U ularning sa'y-harakatlarini sezadi va motivatsion fikr bildiradi. Bu xodimlarning ishtiyoqini saqlab qolishga yordam beradi va jamoa iqlimiga foydali ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy munosabatlar sxema bo'yicha buyruqlar zanjirida qurilgan - direktor - o'qituvchilar va texnik xodimlar.

*Ish haqlarini oshirish:*

Masalan: Kareya Respublikasi, Singapur, Ispaniyada umum ta'lim xodimlarida mamlakatdagi o'rtacha ish haqqiga nisbattan 39%, 25% va 24% ga ko'proq. Eng muhammi bu mamlakatlarda umumta'lim maktablaridagi qo'nimsizlik darajari eng past hisoblanadi. Shu yerda bitta narsani aytib ketish muhim, aynan bu mamlakatlarda nafaqat oylik balki ko'plab boshqa yo'llar bilan ta'lim xodimlari qo'llab quvvatlanadi.

Xodimlar qo'nimsizligi sabablari turlicha bo'lsada uning yechimida ta'lim xodimlari maoshni boshqa kasblarning o'rtacha maoshi bilan solishtirilganda farq sezilarla darajada yirik bo'lishi kerak emas.

Xulosa qilib aytganda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida jonli va samarali muloqotni tashkil etish – ta'lim jarayonining muvaffaqiyatlari kechishida muhim omillardan biridir. Sifatli muloqot nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy faolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagogik nizolar va ziddiyatlar esa bu jarayonda muqarrar holat sifatida yuzaga kelishi mumkin. Muhimi, o'qituvchi bunday vaziyatlarni to'g'ri baholab, ularni ijobiy yo'l bilan hal etishga qodir bo'lishi zarur. Buning uchun o'qituvchi kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishi, sabr-toqat, empatiya va professional yondashuv asosida harakat qilishi kerak. Shundagina ta'lim muhitida o'zaro ishonch, hurmat va hamkorlikka asoslangan ijobiy psixologik muhit shakllanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ibragimov X., Yoldoshev U. va boshqalar. Pedagogik psixologiya. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007. - 410 b.

2. Ochilov Malla. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2000.

3. Karimova V. "Mustaqil fikrlash" metodik qo'llanma. -T.: - 2000 y.
4. Hamdamova M. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmining pedagogik-psixologik asoslari (uslubiy tavsiyalar). TDPU, 2007.
5. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. 2006. -261 b.
6. Hodiyev B.Y., Boltabayev M.R. "Oliy o'quv yurtidagi tarbiyaviy ishlarga psixologik yondashuvlar". -T.: TDIU, 2009. -119 b.

Elektron ta'lim resurslari:

1. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)